

IKKINCHI JAHON URUSHI ARAFASIDA BUYUK BRITANIYA TASHQI SIYOSATI

*Qurbanov Ilyos Zokir o‘g‘li, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM
Samarqand korpusi magistranti*

FOREIGN POLICY OF GREAT BRITAIN ON THE EVE OF WORLD WAR II

*Kurbanov Ilyos Zokir o‘g‘li, Master’s student of the Samarkand Campus of
the University of Economics and Pedagogy*

ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА ВЕЛИКОБРИТАНИИ НАКАНУНЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

*Курбонов Илёс Зокир оглы, магистрант Самаркандинского кампуса
Университета экономики и педагогики*



[https://orcid.org/0009-
0004-8697-2080](https://orcid.org/0009-0004-8697-2080)

e-mail:
ilyosq68@gmail.com

Annotatsiya: Buyuk Britaniyaning Ikkinci Jahon urushi arafasidagi tashqi siyosati tahlil qilinadi. Unda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida global geosiyosiy muvozanatdagi o‘zgarishlar, imperiyalararo raqobat, Britaniya imperiyasining manfaatlari va uning diplomatik strategiyalari yoritiladi. Xususan, Germaniya imperiyasining kuchayishi, qurollanish poygasi, hamda Britaniyaning Fransiya va Rossiya bilan tuzgan ittifoqlari (Antanta) doirasidagi harakatlari chuqur o‘rganiladi. Maqolada Britaniya tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, neytrallik siyosatidan strategik ittifoqlarga o‘tish jarayoni va urushga kirish qarorining diplomatik asoslari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Buyuk Britaniya, tashqi siyosat, Ikkinci Jahon urushi, Antanta, Germaniya, diplomatiya, geosiyosat, xalqaro munosabatlar, imperiyalararo raqobat, urush arafasi.

Abstract: The article analyzes the foreign policy of Great Britain on the eve of the First World War. It covers the changes in the global geopolitical balance in the late 19th and early 20th centuries, inter-imperial competition, the interests of the British Empire and its diplomatic strategies. In particular, the strengthening of the German Empire, the arms race, and Britain's actions within the framework of the alliances with France and Russia (Entente) are studied in depth. The article reveals the basic principles of British foreign policy, the process of transition from a policy of neutrality to strategic alliances, and the diplomatic foundations of the decision to enter the war

Keywords: Great Britain, foreign policy, World War I, Entente, Germany, diplomacy, geopolitics, international relations, inter-imperial rivalry, the eve of war.

Аннотация: Анализируется внешняя политика Великобритании накануне Первой мировой войны. В книге рассматриваются изменения в глобальном геополитическом балансе, межимперская конкуренция, интересы Британской империи и ее дипломатические стратегии в конце XIX — начале XX веков. В частности, будут подробно изучены возвышение Германской империи, гонка вооружений и действия Великобритании в рамках ее союзов с Францией и Россией (Антанта). В статье раскрываются основные принципы британской внешней политики, процесс перехода от политики нейтралитета к стратегическим союзам, а также дипломатические основания решения о вступлении в войну.

Ключевые слова: Великобритания, внешняя политика, Первая мировая война, Антанта, Германия, дипломатия, geopolитика, международные отношения, межимперское соперничество, канун войны.

KIRISH. XX asr boshlarida jahon siyosiy maydonida yuz bergan tub o‘zgarishlar insoniyat tarixidagi eng yirik harbiy mojarolardan biri — Ikkinci Jahon urushiga olib keldi. Bu davrda yirik davlatlar o‘rtasida kuchlar muvozanati izdan chiqdi, qurollanish poygasi kuchaydi, geosiyosiy manfaatlar

to‘qnashuvi tobora keskin tus oldi. Xususan, Buyuk Britaniya o‘zining global imperiyasi va dengizlar hukmdori sifatidagi mavqeini saqlab qolish hamda Yevropadagi kuchlar muvozanatini ta’minlash maqsadida tashqi siyosatini faol va ehtiyotkorlik bilan yuritdi.

Ushbu davr Britaniya tashqi siyosatida “splendid isolation” – ulug‘ ajralish siyosatidan voz kechib, ittifoqlar tizimiga yo‘naltirilgan yangi strategik yondashuvlar bilan ajralib turadi. Germaniya imperiyasining harbiy va iqtisodiy jihatdan kuchayishi Britaniya uchun yangi xavf sifatida namoyon bo‘lib, uni Fransiya va Rossiya bilan yaqinlashishga undadi. Natijada “Antanta” ittifoqi shakllanib, u kelajakdagi geosiyosiy qarama-qarshiliklarda muhim rol o‘ynadi.

Mazkur maqolada aynan shu tarixiy jarayonlar – Buyuk Britaniyaning Ikkinchı Jahon urushi arafasida olib borgan tashqi siyosati, diplomatik aloqalari, manfaatlar to‘qnashuvi va urushga olib kelgan omillar tahlil qilinadi. Maqola davrning xalqaro munosabatlari, Britaniya tashqi siyosatining tamoyillari va qaror qabul qilish mexanizmlarini chuqur yoritishga qaratilgan bo‘lib, bu orqali XX asr boshidagi murakkab geosiyosiy muhitda Britaniyaning o‘rni va roli ochib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQI-QOT METODOLOGIYASI. XIX asr mobaynida Buyuk Britaniya o‘z tashqi siyosatini “splendid isolation” (“ulug‘ ajralish”) tamoyiliga asoslab olib borgan[1]. Bu siyosatga ko‘ra, Britaniya o‘zini Yevropa materigidagi siyosiy mojarolardan yiroqda tutishga harakat qilgan. Biroq asr oxiriga kelib, Germaniyaning kuchayishi, Rossianing Markaziy Osiyodagi faolligi va Fransianing mustamlakachilik ambitsiyalari Britaniyani tashqi siyosat strategiyasini qayta ko‘rib chiqishga majbur etdi.

XX asr boshida Germaniya imperiyasi tez sur’atlar bilan harbiylashmoqda va dengiz floti qurilishiga katta mablag‘ ajratmoqda edi. Bu holat Buyuk Britaniya manfaatlariga tahdid solgan bo‘lib, u o‘zining an’anaviy dengizdagি ustunligiga xavf sifatida qabul qilindi[2]. Shu bilan birga, Avstriya-Vengriya va Italiya bilan ittifoq tuzgan Germaniya ittifoqi (Triple Alliance) Yevropada kuchlar muvozanatini izdan chiqardi.

Ushbu geosiyosiy sharoitda Buyuk Britaniya 1896-yilda Fransiya bilan Entente Cordiale (“do’stona kelishuv”)ni, 1907-yilda esa Rossiya bilan shunga o‘xhash kelishuvni imzoladi. Natijada Antanta ittifoqi yuzaga keldi. Bu diplomatik yaqinlashuv Germaniya bilan qarama-qarshilikni kuchaytirgan bo‘lsa-da, Britaniyaga strategik jihatdan muhim bo‘lgan harbiy hamkorlik asosini yaratdi. Shunga qaramay, urush boshlanguniga qadar Britaniya to‘liq harbiy majburiyatlarni zimmaga olishdan tiyilib kelgan[3].

Buyuk Britaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti AQSH va Germaniyaga nisbatan pasayayotgan bo‘lsa-da, harbiy jihatdan hamon dunyoning eng qudratli davlati bo‘lib qolayotgandi. Qudratli harbiy dengiz floti Buyuk Britaniyani dengizda tanho hukmron davlatga aylantirgandi. Shu qudrat tufayli Buyuk Britaniya XIX asrdan boshlab dunyoning barcha qit’alarida juda katta hududlarni bosib oldi va ularni o‘z mustamlakasiga aylantirdi. XIX asr oxiriga kelganda mustamlakalarga aylantirilgan hududlar 33 mln kv km ni tashkil etdi[5]. Ularda qariyb 370 mln kishilik aholi yashardi. Mustamlakalardan keladigan daromad olinayotgan foydaning katta qismini tashkil etardi. O‘scha davr tarixchilari Buyuk Britaniya uchun mustamlakalarning ahamiyati haqida majoziy ma’noda bunday deb yozgandi: “Hindiston Buyuk Britaniyani boquvchi enaga. Misr esa Britaniya imperiyasi boshiga kiydirilgan tojdir”[6].

Iqtisodiy jihatdan Buyuk Britaniyaning eng ilg‘or mamlakat sifatidagi mavqeyining pasaya borishi uni yangi-yangi mustamlakalar bosib olishni kuchaytirishga undadi. Ayni paytda esa avvalgi mustamlakalarda o‘z mavqeyini yanada mustahkamlashga intildi. 1875-yilda dastlab Misr hukumatidan O‘rtayer dengizidan Hind okeaniga chiqishga imkon beruvchi Suvaysh kanalining 45% aksiyasini sotib oldi. Tez orada kanalning boshqa, xususiy kishilar qo‘lida to‘plangan aksiyalarini ham qo‘lga kiritdi. Shu orqali Hindistonga chiqadigan dengiz yo‘llari nazorati to‘la Britaniya qo‘liga o‘tdi. 1876-yilda esa Britaniya o‘z qirolichasi Viktoriyani Hindistonning imperatori deb e’lon qildi. Shu tariqa Buyuk Britaniya imperiyasi tashkil etildi. Endilikda

Buyuk Britaniya imperiya deb, parlamenti esa imperiya parlamenti deb yuritiladigan bo‘ldi[7].

Ayni paytda Yer sharining bu mintaqasiga podsho Rossiyasi ham da’vogarlik qilmoqda edi. Podsho hukumatining maqsadi O‘rta Osiyon egallash orqali Afg‘onistonga chiqish va shu orqali Hindistonga bevosita tahdid solib turish imkoniga ega bo‘lish yo‘li bilan xalqaro masalalarda Buyuk Britaniyani yon berishga majbur etish edi. Podsho Rossiyasi O‘rta Osiyo davlatlarini bosib olish uchun harakat boshlagani Buyuk Britaniyani tashvishga solmay qolmadi. Nihoyat, ikki davlat manfaatlарining o‘zaro mushtarakligiga erishishdi[8]. Ya’ni Rossiya Hindistonga xavf solish, Buyuk Britaniya esa O‘rta Osiyon egallash niyatidan voz kechdi. Afg‘oniston bu ikki buyuk davlat manfaatlari tig‘ini qaytarib turuvchi hudud vazifasini o‘tashi lozim edi [9].

XIX asr oxirlarida Bolqon yarimoroli xalqlarining ma’lum qismi Turkiya zulmi ostida edi. Podsho Rossiyasining Bolqonda mustahkam o‘rnashib olishga intilishi, Turkiyaning esa Bolqondagi slavyan xalqlarini o‘z zulmi ostida saqlab turishga urinishi 1877-yilda Rossiya—Turkiya urushini keltirib chiqardi. Bu urushda qo‘li baland kelgan Rossiya Turkiyani o‘zi uchun qulay San-Stefano sulu shartnomasini imzolashga majbur etdi. Biroq Rossiyaning kuchayib ketishini istamagan Buyuk Britaniya Rossiyani buyuk davlatlarning Berlin kongressida San-Stefano shartnomasini qayta ko‘rib chiqishga majbur etdi[10].

Kongressda slavyan xalqlarining manfaatlari zid qarorlar qabul qilindi. Turkiya manfaatlari qattiq himoya etildi. Bu xizmat evaziga Turkiya Buyuk Britaniya foydasiga Kipr orolidan voz kechdi. Biroq bora-bora Buyuk Britaniya podsho Rossiyasiga nisbatan dushmanlik munosabatini o‘zgartirishga majbur bo‘ldi[11].

Bunga Germaniya harbiy qudratining tobora o‘sib borayotgani uning hatto Buyuk Britaniya mustamlakalariga ham da’vo qilayotgani sabab bo‘ldi. Eng ko‘p mustamlakali davlatlar bo‘lgan Buyuk Britaniya va podsho Rossiyasi o‘z mustamlakalarini Germaniya bilan baham ko‘rishni aslo istamasdi. Endi bu ikki davlat umumiyl dushman

xavfiga qarshi turish uchun o‘zaro yaqinlashish yo‘llarini izlay boshladi.

Buyuk Britaniya tabiiy qazilmalarga boy Afrika qit’asida ham katta mustamlakalar bosib olishga kirishdi. 1882-yilda Misrni egalladi. Keyingi yillarda Nigeriya, Somali, Keniya, Ugandani zabit etdi. 1899-yilda Afrikaga Gollandiya, Fransiya va Germaniyadan ko‘chib borgan kishilar avlodlari boshqarayotgan Bur Respublikalariga qarshi urush harakatlarini boshladi. 1902-yilda Bur Respublikalari taslim bo‘ldi (Transvaal va Oranj Respublikalari). Buyuk Britaniya Janubiy Afrikada bosib olgan barcha hududlarini yagona birlikka — Janubiy Afrika Ittifoqiga birlashtirdi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Bozorlar va mustamlakalar uchun buyuk davlatlar o‘rtasida raqobatning kuchayib ketgani Buyuk Britaniyaning xalqaro ahvolini ancha yomonlashtirib bordi. Ayniqsa, Germaniya bilan Buyuk Britaniya ziddiyatlari kuchaydi. Shunday sharoitda Buyuk Britaniya Germaniyaga qarshi boshqa davlatlar bilan til topish yo‘lini izlashga majbur bo‘ldi. 1901-yilda Panama kanali masalasida AQSHga yon berdi. 1902-yilga kelib, Yaponiya bilan shartnoma imzoladi va unga katta moliyaviy yordam ko‘rsatdi.

1904-yili Buyuk Britaniya bilan Fransiya o‘rtasida shartnoma tuzilib, u Antanta nomini oldi. 1907-yilda Buyuk Britaniya-Rossiya bitimi tuzildi. Buyuk Britaniya hukumati, ayni paytda, o‘zga davlatlarning ichki ishlariga ham aralashishni davom ettirdi. Chunonchi, Erondagi (1905-1911-yillardagi) inqilobni bostirdi. Xitoyda 1911-yilgi inqilobga qarshi chiqqan kuchlarni qo‘llab-quvvatladi. Ayni paytda Buyuk Britaniyadan ko‘chib borgan inglizlar joylashgan mustamlakalarda mustahkamlanib olgan milliy burjuaziyaning tazyiqi ostida hukumat bu mustamlakalarga rasmiyatchilik jihatdan mustaqillik huquqini (dominion) berishga majbur bo‘ldi.

XULOSA. Buyuk Britaniya Ikkinchiji Jahon urushi arafasida murakkab va keskin geosiyosiy sharoitda tashqi siyosatini olib bordi. XIX asr oxirigacha davom etgan “splendid isolation” siyosatidan voz kechib, u yangi diplomatik yondashuvga o‘tdi va Antanta kabi ittifoqlar orqali Yevropadagi kuchlar muvozanatini saqlashga intildi. Germaniyaning iqtisodiy va harbiy jihatdan

kuchayishi, ayniqsa dengiz qudratini kengaytirish harakatlari, Britaniya uchun jiddiy xavf sifatida baholandи. Shu sababli, Britaniya tashqi siyosati ham diplomatik jihatdan faollahdi, ham harbiy jihatdan ehtiyotkor pozitsiyada bo'ldi.

1934-yilda Avstriya-Vengriya va Serbiya o'rtaisdagi mojarodan boshlangan inqiroz tezda butunjahon urushiga aylanar ekan, Buyuk Britaniya o'zining xalqaro majburiyatlari, xususan, Belgiya betarafligini himoya qilishga asoslanib urushga qo'shildi. Bu qaror Britaniyaning nafaqat harbiy, balki strategik va diplomatik pozitsiyasining natijasi edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Фергюсон, Н. (2011). Империя: как Британия построила современный мир. – М.: Альпина нон-фикшн.
2. Kissinger, H. (1994). Diplomacy. – New York: Simon Schuster.
3. Steiner, Z. (2005). The Lights That Failed: European International History 1919–1933. – Oxford University Press.
4. Taylor, A.J.P. (1954). The Struggle for Mastery in Europe: 1848–1918. – Oxford University Press.
5. Kennedy, P. (1987). The Rise and Fall of the Great Powers. – New York: Random House.
6. Розанов, Н.Н. (2002). Великобритания во внешней политике Европы: конец XIX — начало XX вв. – М.: Наука.
7. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 17-20.
8. Аллаярова М. М., Кучкаров Ж. С. Духовно-исторические корни национальной идеи узбекского народа //философия в современном мире. – 2017. – С. 21-24.
9. Usmonov,F.N. The role rationalization in the acceleration of life sequence //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 3. – С. 227-229.
10. Rizaev I. Liberalization of the social system: constructive and destructive aspects //TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research. – 2021. – Т. 10. – №. 4. – С. 58-64.

